
MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Qo'shtepa tumanida "2020-2021 yillar davomida yoshlar bilan ishlashni yangicha tizimini joriy etish" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Bu galgi tadbir tuman Madaniyat bo'limi hamda madaniyat markazlari tomonidan kuni kecha tumandagi 5,2,34,22-umumta'lim maktablarida o'tkazildi. Tadbir yoshlarni musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish hamda ular bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yib, mahorat darslarini o'tkazish maqsadida tashkil etildi.



Tuman Madaniyat bo'limi hamda madaniyat markazlari xodimlari hamda to'garak rahbarlari X.Xoldorov, U.O'ktamov, M.Qosimov, A.Sheraliyev, Z.Qosimov, A.Normatov, D.Raximov, R.Uzaqov, M.O'rmonov, D.Saidmurodov, S.Azimov, G.Yusupova, D.Sotvoldiyevlar tomonidan umumta'lim maktablarida uchrashuv, konsert va to'garak mashg'ulotlari tashkil etildi. Madaniyat xodimlari ishtirokida konsert dasturlari namoyish etildi.



O'tkazilgan tadbirlarda maktab o'qituvchilari va iste'dodli o'quvchi yoshlar ishtirok etishib, ular tomonidan ham kuy, qo'shiq, raqslar ijro etildi.

“Kabutar” folklor etnografik xalq jamoasi badiy rahbari A.Turg’unov madaniy me’roslarimizni asrash, avaylash va targ’ib qilish maqsadida Qiyqi mahalla fuqarolar yig’ini hududida joylashgan Qoratepa tepaligida to’garak a’zolari va maktab o’quvchilari ishtirokida targ’ibot ishlarini olib bordi. A.Turg’unov yoshlarga madaniy me’rosimizni qanday saqlashimiz va asrab-avaylashimiz haqida gapirib o’tdi. Ushbu tadbir davomida yoshlar ham o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

A.Ahmadjonov,

Madaniyat markazi to’garaklar faoliyaini tashkil etish mutaxassisi.

2020-12-19 16:20:48